TILNING PAYDO BO'LISHI VA UNING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI

Adilova Soliya- SamISI professori

Toshnazarova Zuhra-SamISI talabasi

Annotatsiya: maqolada tilning qanday sharoitlarda paydo bo'lishi masalasini ilmiy farazlarga asoslanib o'rganilgan, til paydo bo`lishi borasidagi nazariyalar tahlilibayon qilinadi va ularning tarixi batafsil tanishtiriladi.

Key words: anomalistlar, tilning mavjud bo'lishi, antropologiya, psixologiya, etnografiya, nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilning qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq davr qizg'in bahs olib borganlar. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, bu masalada grek faylasuflari bir-biriga zid ikki xil farazni o'rtaga tashlashgan. Demokrit va boshqalar tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog'lanish yo'q , bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Bu guruh olimlar anomalistlar deb nom olgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlar "narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog'lanish bor. Bu bog'lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqanva bu bog'lanish ilohiy kuch tomonidan o'rnatilgan" degan fikrni ilgari surishgan. Tarixda bu oqim anologistlar deb nom olgan.Hozirgi tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralsa, narsalar bilan ularning nomi orasida, umuman olganda hech qanday bog'lanish yo'q. Bu ko'pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan. Chunki narsa bilan uning nomi orasida bog'liqlik bo'lganda tillarning soni 5000 dan ortib ketmasdi. Shuni aytib o'tish kerakki, ayrim tillarning kelib chiqishini, masalan o'zbek, rus, hind, tojik va boshqa tillarning qachon paydo bo'lganini, qanday tarkib topganligini aniq bilish mumkin. Ammo, biror bir aniq tilning kelib chiqishi masalasini umuman tilning, insonlar nutqining paydo bo'lishi masalasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Hozir dunyoda mavjud bo'lgan jonli tillarning ham, ba'zi bir o'lik tillarning ham kelib chiqish tarixini o'rganish u qadar qiyin masala emas. Anchagina tillarning qachon paydo bo'lganligi, qachon tarkib topganligi aniqlangan. Biroq, yer yuzida umuman insoniyatga xos tilning qachon paydo bo'lganligi, dastlabki tillarda qanday so'zlar bo'lganligi, uning grammatik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi hal qilingan emas va hal qilinishi ham mumkin emas. Chunki bundan bir necha yuz ming yillar burun paydo bo'lib, keyinchalik nom-nishonsiz yo'qolib ketgan tillar ham bo'lgan.

Tilshunoslikning umumiy va xususiy tilshunoslik; nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik kabi qator bo'limlari mavjud bo'lib, tilning ayrim jihatlari asosida umumiy qoidalar chiqariladi.Til-ijtimoiy hodisa. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan. Til-tabiiy, biologik hodisa emas; tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bo'ysunmaydi. Til butun jamiyat tarixi jarayonidagi tadrijiy davrlarning mahsuli sifatida umuminsoniy manfaatga xizmat qiladi.Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlarni ifoda etadi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog'liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiydir.

Tilning paydo bo'lishi masalasi insoniyatni qadimdanoq qiziqtirib keladi. Tilning paydo bo'lishi juda murakkabdir. Bu masala faqat tilshunoslikning emas, boshqa ko'p fanlarning: antropologiya, psixologiya va etnografiya kabi fanlarning ham o'rganish obyektidir. Tilning paydo bo'lishi masalasi -til qachon va qayerda paydo bo'lgan, dastlab nechta til bo'lgan, u yoki bu tillar qanday tuzilishda bolgan va shu kabi savollarga hali ilmiy asoslangan mukammal javob

Tilning kelib chiqishi masalasini aniqlashdagi qiyinchilik shundan iboratki, birinchidan, hozirgi til tarixi fani dunyoda umuman tilning qanday paydo bo'lganligi to'g'risida hech qanday dalillarga ega emas. Chunki hozir bizga ma'lum tillarning yozuv tarixi 10 -15 ming yildan oshmaydi. Olimlarning faraz qilishicha, inson bundan bir necha yuz ming yil avval so'zlasha boshlagan. Ammo, o'sha davrdagi tillar to'g'risida hozirgi vaqtda hech qanday ma'lumot yo'q. Shuning uchun ham tilshunoslik fani bu masalani to'g'ridan-to'g'ri o'rganish imkoniyatiga ega emas. Dunyoda eng avval paydo bo'lgan tilning fonetik tuzilishi, so'z boylii qanday ekanligini , grammatik shakllari nimalardan iboratligini bilish mumkin emas.

Fanda tilning kelib chiqishi to'g'risida bir-biriga qarama-qarshi nazariyalar mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan kurashib kelmoqda. Bu nazariyalarning ba'zilari til insonlarning bir-biri bilan munosabatda bo'lishi ehtiyoji natijasida kelib chiqqan deb hisoblasa, boshqalari ayrim shaxslarning o'z fikrini avval o'zi uchun, keyin boshqalar uchun bildirishi natijasida kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Shu tariqa tilning paydo bo'lishi va shakllanishi haqida turlicha qarashlar, nazariyalar, farazlar yaratildi. Ushbu nazariyalar tanqidiy tahlil asosida o'rganilishi lozim. Bu nazariyalar asosan 4 ta:Ovozga taqlid nazariyasikishilarning o'z atrofidagi predmetlarning chiqargan ovoziga taqlid qilishi natijasida dastlabki so'zlar, predmetlarning nomlari paydo bo'lgan, deb hisoblaydi.Bu nazariya qadimgi Yunonistonda -Demokrit va Platon davrida o'rtaga tashlangan bo'lib, unga ko'ra ibtidoiy odamlar yo ongli , yo ongsiz tarzda turli –tuman tovushlar, ya'ni hayvonlarning baqiriqlari, qushlarning sayrashi, shamol va sharsharalarning ovozlariga taqlid qilishga harakat qilishgan. Masalan:chumchuq, kaklik, qarg'a, shir-shir, taq-tuq, kuk-ku, gumbur-gumburkabilar. Ammo bu so'zlar hamma tilda mavjud bo'lsa ham, ular juda ozchilikni tashkil qiladi. Tabiatda tovush chiqarmaydigan narsalardan tovush chiqaradiganlari kam. Shunday ekan, tovush chiqarmaydigan narsalarning nomi qanday shakllangan, degan savol tug'iladi. Bu nazariya to'g'ri bo'lsa , unda ibtidoiy jamiyatda yashagan qabilalar tilida bunday usulda yasalgan so'zlar soni fan va texnikasi rivojlangan xalqlar tilidagiga nisbatan ko'proq bo'lishi kerak. Lekin so'nggi yillarda Janubiy Amerika va Avstraliyada topilgan, ibtidoiy tuzumni boshidan kechirayotgan qabilalar tilida o'tkazilgan tajribalar bu tillarda tovushga taqlid qilish yo'li bilan yasalgan so'zlar rivojlangan tillardagiga qaraganda birmuncha kamchilikni tashkil qilishi ko'rsatiladi. Undan tashqari, tabiatdagi tovushlarga taqlid qilish uchun nutq organlarining o'ta rivojlangan bo'lishi ham aniqlangan. Shuning uchun taqlidiy so'zlar tilning paydo bo'lishi masalasini hal qilishda asosli ahamiyatga ega emas. Demak, ovozga taqlid nazariyasi tilning kelib chiqishi masalasini to'g'ri hal qilib berolmaydi.Undovlar nazariyasiham tilning paydo bo'lishi masalasini talqin qiluvchi nazariyalardan biri bo'lib, bu nazariya tarafdorlari tildagi barcha so'zlar kishilarning ichki tuyg'ulari, qahr-g'azablari, his-hayajonlari, ixtiyorsiz baqirishlari natijasida paydo bo'lgan, deb da'vo qiladilar . Bu nazariya ham qadimiy bo'lib, uning asosida ham hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlari yotadi. Mazkur nazariya asoschilarining fikricha, ibtidoiy odamlar hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlarini o'rganib, ular orqali o'zlarining ichki kechinmalari , g'am-alamlarini ifodalashgan:oh, uh, joy, ingkabi so'zlar bunga misol qilib ko'rsatiladi. Tildagi boshqa so'zlar esa ana shunday so'zlarning birikuvidan kelib chiqqan, deb tushuntiriladi. Taniqli

faransuz olimi J.J.Russo ham shu fikrni quvvatlagan.Dunyodagi barcha tillarda bunday birliklar mavjud, lekin bunday so’zlarning miqdori shu qadar kamki, tildek murakkab hodisa ana shu yo’l bilan paydo bo’lgan, deyish bu masalani juda soddalashtirib yuborgan bo’lar edi .Ma’lumki, tilning asosiy vazifasi kishilar orasida fikr almashinuvini ta’minlashdir. Binobarin , mazkur nazariyani qabul qilish tilning asosiy vazifasini, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini rad etishga olib keladi . Ichki kechinmalarni izhor qilish doimo ham jamiyatning bo’lishini taqozo qilmaydi . Tilning yashashi va rivojlanishi esa jamiyat bilan uzviy bog’liq: jamiyat bor joydagina til bor, til bor joyda jamiyat bor.Demak, bu nazariya ham tilning kelib chiqish masalasini to’g’ri yoritishga ojizlik qiladi.Mehnat hayqiriqlari nazariyasitarafdorlari tildagi barcha so’zlar ibtidoiy kishilarning birgalashib mehnat qilish jarayonida mehnat qilishga undaydigan Ixtiyorsiz qiyqirishlar natijasida paydo bo’lgan, deb da’vo qiladilar.Bu nazariyani XIX asrning 70 -yillarida fransuz faylasufi L. Nuare yaratdi. Uningqaydqilishicha, tilinstinktivhayqiriqlardanpaydobo’lgan. Nemis olimi Karl Byuxer ham ushbunazariyani quvvatlaydi.Bu nazariya bir qarashda haqiqatga birmuncha yaqin nazariyadek ko’rinsa ham, mantiq jihatdan asossizdir. Chunki mehnat qilishdagi qiyqiriqlar, hayqiriqlar mehnat jarayonidagi bir maromga , bir qolipga solish uchun bir vosita bo’lgan, xolos . uy, oh, voh, viq, oho, ehekabi hayqiriqlar kishilar o’rtasida aloqa vositasi bo’lganligiehtimol.Mehnat hayqiriqlari undov nazariyasiga o’xshab ketadi. Lekin bu nazariya ham tilning kelib chiqish sabablarini, tilning paydo bo’lishini jamiyatning paydo bo’lishi, so’zlash va fikr yuritish qobiliyatiga ega bo’lgan insoniyatning paydo bo’lishi bilan uzviy bog’lay olmaydi.Ijtimoiy kelishuv nazariyasi. Bu nazariya XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo’lib, uni ilgari suruvchi olimlar ba’zida bir-biriga zid xulosalarga kelishgan, ularning tilning kelib chiqishi to’g’risidagi asosiy fikrlari bir xil. Bu nazariyaga asosan, narsalarni qanday atashni odamlarning o’zlari kelishib olishgan. Biror narsani nomlashda kelishib olish uchun, tabiiyki, kelishuv vositasi, ya’ni til kerak bo’ladi. Ushbu nazariya tilning paydo bo’lishini emas, balki til rivojlanishining bir yo’nalishini yoritishi mumkin. Hozirgi vaqtga kelib u yoki bu fanga taalluqli atamalar yoki so’zlar o’zaro kelishib olinadi. Lekin buning til shakllanishiga aloqasi yo’q.Yuqorida ko’rsatib o’tilgan nazariyalarning hammasi ham tilning kelib chiqishi masalasini to’g’ri yoritishga ojizlik qiladi. Chunki bu nazariyalar tilning kelib chiqishi masalasini insoniyatning paydo bo’lishi, dastlabki kishilar jamoasining vujudga kelishi masalasidan ajratib olgan holda qaraydi.Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi qancha umr ko’rmasin, u gapirmaydi. Chunki til nasldan naslga, avloddan avlodga o’tmaydi, ya’ni uni irsiyatga bo’lab qo’yish to’g’ri bo’lmaydi. Irsiyat qonuniga binoan, bolaning biologik, antropologik xususiyatlari avloddan avlodga o’tadi, lekin o’zbek oilasida tug’ilgan bola faqat o’zbek tilida gapiradi deyish noto’g’ridir. U qaysi tilda gapira boshlashi qaysi oila , qaysi ijtimoiy muhitda tarbiyalanishiga bog’liq.Xullas, til birligi uning erkin rivojlanishi millatning asosiy belgilaridan biridir . Milliy tilning xalq tilidan farqi uning adabiy yozuv shakliga egaligidir. Milliy tilning bu shakli mazkur millatning har bir a’zosi, har bir sheva uchun umumiydir. Har bir millatning madaniy merosi ana shu tilda o’z aksini topadi.Til kishilik jamiyatida yaratilgan bo’lib,aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Uning ijtimoiy tabiati ayrim shaxsga emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishda namoyon bo’ladi.Til insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoladigan asosiy vositadir.Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo’ladi (boshqacha aytganda, «tug’iladi», taraqqiy etadi, «o’sadi»), bir jamiyat yo’q bo’lishi bilan til ham asta –sekin iste’moldan chiqa boshlaydi va davrlar o’tishi bilan o’lik til bo’lib qoladi. Masalan, lotin, sug’d, qadimiy Xorazm tillari kabilar bunga misol. Biroq tilninng paydo bo’lishi (“ tug’ilishi”) taraqqiy etishi

(“ o’sishi”) va iste’mol qilinmay qolishi (“o’lishi”) biologik jarayon emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan bog’liqdir. Shuning uchun til qonunlarini, uning taraqqiyot yo’llarini jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalqning tarixi bilan bog’liq holda o’rgangandagina masalani to’g’ri hal qilish mumkin.Demak, jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo’lgan tilning bir butunligiga asoslanib, uni tirik organizmga o’xshatish noto’g’ridir. Til o’zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarining o’zaro munosabati bilan butun bir tizimni tashkil etadi.Umumiy tilshunoslik fanining asoschisi V. fon Gumboldt (1767-1835) tilshunoslik fanining asosiy masalalarini, predmetini va chegarasini belgilab berishga harakat qilganmashhur olim edi. V. Gumboldt tilshunoslikni inson o’rganadigan tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga qo’shishga harakat qildi.V. Gumboldt ta'rificha, til murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan sifat va xususiyatlarni o’zida mujassamlashtirgan hodisadir, shuning uchun ham tilni ilmiy o’rganishda, uning haqiqiy mohiyatini tushunishda antinomiya qarama-qarshilik) metodini qo’llash maqsadga muvofiqdir. Til tabiatiga xos asosiy antinomiyalar quyidagilardir:Birinchi antinomiya:til bilan tafakkurning ajralmas birligi va ichki qarama- qarshiligidir. Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo’lmaganidek, tilning ham tafakkurdan ajratib qo’yilishi mumkin emas.Ikkinchi antinomiya:til har doim rivojlanib turadigan dinamik hodisadir. Bir tomondan, til faoliyat bo’lsa, ikkinchi tomondan, faoliyat mahsulidir. Tilda so’zlovchi har bir kishi o’zining nutq faoliyati jarayonida tilning rivojlanishi uchun o’z hissasini qo’shadi. Shu bilan birga til insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha tarixiy boyliklarini mujassamlantirgan va avloddan-avlodga o’tib boradigan aniq tarixiy me’yordir. «Aslida til» «egrgon» (faoliyat mahsuli) emas, balki «energiya» (faoliyat) ning o’zginasidir». Bu antinomiyadan ko’rinib turibdiki, V. Gumboldt til bilan nutqning tilshunoslik fani ob'ektlari, sifatida ajratib o’rganish masalasini ilgari surgan. Demak, ikkinchi antinomiya til bilan nutqning o’zaro munosabati masalasidan iborat. Uchinchi antinomiya: nutq va tushunish antinomiyasidir.V. Gumboldt ta'rifiga ko’ra nutq bilan nutqni tushunish inson nutq faoliyatining ikki tomonini tashkil etadi.To’rtinchi antinomiya:tildagi obyektiv va subyektiv xususiyatlarni o’z ichiga oladi. V. Gumboldtning fikricha, har bir individ insoniyat kollektivi tomonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi. Subyektiv hodisa sifatida esa har bir so’zlovchi o’zining nutqiy faoliyati jarayonida tilning rivoji uchun o’z hissasini qo’shadi.Beshinchi antinomiya:tildagi kollektiv va individual xususiyatlardir. Ma'lumki nutq ayrim shaxslarning mahsulidir, ammo ayrim shaxslar o’zlaridan oldingi avlod tomonidan yaratilgan kollektiv mahsulotidan foydalanadilar. Nutq faoliyati o’z navbatida so’zlovchini va tinglovchini taqozo qiladi. Shuning uchun tildagi kollektiv va individual xususiyatlarni o’rganish zarur.Demak, V. fon Gumboldt fikricha, til nihoyat darajada murakkab va ko’p aspektli hodisa bo’lib, uni ilmiy o’rganish esa tilning barcha aspektlarini tekshirishni talab qiladi.V. fon Gumboldt ta'kidlashicha, tilning har doim, rivojlanib o’zgarib turishi uning eng asosiy xususiyatidir. Tilshunoslik fanining asosiy masalasi-tilning ana shu xususiyatini o’rganishdan iboratdir. Yuqorida ko’rsatib o’tilgan masalalar tilshunoslik fanining predmeti masalasi bilan bevosita aloqadordir.Garchi V. Gumboldtning nazariyasi idealistik falsafaga asoslangan bo’lsa ham, uning ilmiy faoliyati, ayniqsa til bilan nutq antinomiyasi xususidagi ta'limoti tilshunoslik fanining taraqqiyoti uchun judakatta hissa bo’ldi. V. Gumboldtning til haqidagi falsafiy nazariyasi, o’zidan keyingi tilshunoslik fanining takomillashuvida, turli ilmiy oliy ta’limlar va oqimlarning shakllanishida asosiy omil bo’ldi.Tilshunoslik fani tarixida muhim o’rin tutgan «Yosh grammatikachilar» oliy ta’limi vakillari tilning tarixiy hodisa ekanligini tilning eng asosiy xususiyati deb bildilar. Ularning fikricha, til avvalo uzoq tarixga ega bo’lgan kishilik jamiyati madaniyatining mahsuli bo’lib, uni tarixiy jihatdan

o’rganish zarur. Shunga binoan, tilshunoslik tarixiy fan bo’lib, tilning o’ziga xos tabiatini, tilning o’zgarish sabablarini o’rganishi lozim. «Yosh grammatikachilar» oliy ta’limining eng yirik namoyandasi G. Paulning fikricha, tilshunoslik fani bilan til tarixi fani tushunchasi bir.«Yosh grammatikachilar» til hodisalarini ayrim (atomizm) holda o’rganishni tavsiya qiladilar. Ular til va tafakkur, tillarning grammatik qurilishi turlicha bo’lishi sabablari, tilning ijtimoiy tabiati kabi masalalar bilan qiziqmadilar. Ular o’sha davrda hukm surgan psixologik nazariyalarning ta'sirida bo’lib, tildagi barcha hodisalarni individual psixologiya prinsiplari asosida hal qilishga intildilar. F. de Sossyurning ilmiy g’oyasi tilning murakkab ziddiyatlarga boy, ko’p tomonlama hodisa ekanligiga asoslangan. F. de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradiganfunksiyasiga ko’ra aloqa quroli, fikrni ifodalaydigan vositadir

Tilshunoslikning umumiy va xususiy tilshunoslik; nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik kabi qator bo’limlari mavjud bo’lib, tilning ayrim jihatlari asosida umumiy qoidalar chiqariladi.Til-ijtimoiy hodisa. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan. Til-tabiiy, biologic hodisa emas; tilning mavjud bo’lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bo’ysunmaydi. Til butun jamiyat tarixi jarayonidagi tadrijiy davrlarning mahsuli sifatida umuminsoniy manfaatga xizmat qiladi.Til kishilar o’rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo’lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlarni ifoda etadi. Tilning paydo bo’lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog’liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiydir.

Tilning paydo bo’lishi masalasi insoniyatni qadimdanoq qiziqtirib keladi. Tilning paydo bo’lishi juda murakkabdir. Bu masala faqat tilshunoslikning emas, boshqa ko’p fanlarning: antropologiya, psixologiya va etnografiya kabi fanlarning ham o’rganish obyektidir. Tilning paydo bo’lishi masalasi -til qachon va qayerda paydo bo’lgan, dastlab nechta til bo’lgan, u yoki bu tillar qanday tuzilishda bolgan va shu kabi savollarga hali ilmiy asoslangan mukammal javob topilgan emas. Ba’zi olimlarning fikricha, til taxminan besh yuz ming yillar ilgari paydo bo’lgan.

Ayrim tillarning kelib chiqishini, masalan o’zbek, rus, hind, tojik va boshqa tillarning qachon paydo bo’lganini, qanday tarkib topganligini aniq bilish mumkin. Ammo, biror bir aniq tilning kelib chiqishi masalasini umuman tilning, insonlar nutqining paydo bo’lishi masalasi bilan tenglashtirib bo’lmaydi. Hozir dunyoda mavjud bo’lgan jonli tillarning ham, ba’zi bir o’lik tillarning ham kelib chiqish tarixini o’rganish u qadar qiyin masala emas. Anchagina tillarning qachon paydo bo’lganligi, qachon tarkib topganligi aniqlangan. Biroq, yer yuzida umuman insoniyatga xos tilning qachon paydo bo’lganligi, dastlabki tillarda qanday so’zlar bo’lganligi, uning grammatik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi hal qilingan emas va hal qilinishi ham mumkin emas. Chunki bundan bir necha yuz ming yillar burun paydo bo’lib, keyinchalik nom-nishonsiz yo’qolib ketgan tillar ham bo’lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A., Xakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O’zbek tili va adabiyoti, 2001, 4-son, – B. 54-58.
2. Ojegov S.I., Shvedova N.YU.Tolkovыy slovar russkogo yazыka. 80000 slovi frazeologicheskix vыrajeniy. – 4-e izd., dopolnennoe, –Moskva: Azbukovnik, 1999. – S. 549.

3. Okulovskiy O.I. Kompetentsii i kompetentnostnыy podxod v obuchenii // Molodoy uchenыy.– Moskva, 2012. –№12.– S. 499-500.
4. Passov Ye.I., Kuzovlev, V. P., Kuzovleva, N. Ye., Sarkova, V. B. Masterstvo i lichnost uchitelya: Na primere deyatelnosti uchitelya inostrannogo yazыka.2-e izd., ispr. i dop.– Moskva: FLINTA, Nauka, 2001.– S. 74.
5. Pautova M.A. Razvitie kommunikativnoy kompetentnosti studentov ekonomicheskix spetsialnostey: Diss… kand. ped. nauk.– Sibirskiy universitet putey soobщeniya, 2009. – S. 213.
6. Makhmudovna, A. Sh. The Motivating Power Of Fairy Tales In Fpreign Language Classroom. Propescts Of Development Of Science And Education Conference Proceedings, 33,3417.Makhmudovna, A. Sh. Nutq Madaniyatini Shakllantirishda So'z Va Muloqot Madaniyati Asosiy Omildir. Interdisciplinary Issues Of Aplied Linguistics And Actual Problems And SolutionsIn Distance Education, 337,338,339,340